



FAO bilan strategik sheriklik bo'yicha uzoq muddatli dastur qabul qilish muhimligi ta'kidlandi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-sentabr kuni BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bosh direktori Syuy Dunyuyni qabul qildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi nufuzli tarmoq tuzilmasi rahbari shu kunlarda Toshkent shahrida o'tkazilayotgan Dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlar oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha xalqaro forum doirasida mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Uchrashuv avvalida BMTning yuqori martabali vakili dunyoning 30 dan ortiq mamlakatidan nufuzli delegatsiyalar ishtirok etayotgan forumni muvaffaqiyatli o'tkazishni qo'llab-quvvatlagani uchun davlatimiz rahbariga chuqur minnatdorlik bildirdi.

Suhbat davomida O'zbekiston va FAO o'rtasidagi zamonaviy xavf-xatar va tahdid-

larga qarshi samarali chora ko'rish borasidagi strategik sheriklikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

So'nggi yillarda amaliy hamkorlikda erishilgan samarali natijalar mamnuniyat bilan qayd etildi. Xususan, 2025-yilgacha bo'lgan davrda hamkorlik bo'yicha mamlakat dasturini bajarish sifat ko'rsatkichlari ikki barobar yaxшилandi. Hozirda 34 ta loyiha faol amalga oshirilmoqda. O'tgan bir yil ichida dehqonchilik, maktablarda ovqatlanish, veterinariya, agrokimyo va boshqa sohalarda 7 ta yangi loyiha ishga tushirildi.


Yangi besh yillik sheriklik dasturini tayyorlash va qabul qilish muhimligi ta'kidlandi.

Agrosanoat majmuasini raqamlashtirish, ilg'or bilim va tajriba almashish, yer fondi unumdorligini oshirish, organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy klasterlar va logistika markazlarini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha istiqbolli qo'shma loyiha va tadbirlarga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq global va mintaqaviy vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA

O'zbekiston Prezidenti Xitoy bilan hududlararo hamkorlik salohiyatini samarali amalga oshirish tarafdori ekanini bildirdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-sentabr kuni Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi Siyosiy byurosi a'zosi, Tyanszin shahri partiya qo'mitasi kotibi Chen Miner boshchiligidagi Xitoy Xalq Respublikasi delegatsiyasini qabul qildi.

Uchrashuv boshida Chen Miner davlatimiz rahbariga Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarga muvofiq O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik va amaliy sheriklikni, ayniqsa, faol hududlararo muloqot doirasida yanada chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Keyingi yillarda O'zbekiston — Xitoy do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tyanszin shahrining yetakchi kompaniyalari bilan savdo, sanoat, "yashil" energetika, qurilish va infratuzilmani modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, farmatsevtika va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Innovatsiyalar, ta'lim va madaniyat sohalarda almashinuv dasturlarini kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston hududlari va Tyanszin shahri o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik bo'yicha "yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

ELEKTROTEXNIKA SOHASIDA ASOSIY VAZIFA — SIFATNI TA'MINLASH VA TANNARXNI TUSHIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 5-sentabr kuni elektrotexnika sohasida ishlab chiqarish, eksport va investitsiya hajmini ko'paytirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Mamlakatimizda bu borada katta salohiyat bor. So'nggi yetti yilda sohaga 1 milliard dollar investitsiya kiritilgan. Natijada 762 ta korxona ishga tushirilib, 45 turdagi yangi mahsulot tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida sohadagi korxonalar tomonidan byudjetga tushum 8 barobar o'sgan. Ishlab chiqarish hajmi 1,8 barobar o'sgan.

Eksport geografiasini so'nggi uch yilda 2 karra oshib, 62 ta davlatga yetdi. Ishlab chiqarilayotgan 200 turdagi mahsulotning 195 turi eksport bo'lyapti. Umuman, elektr texnikalari eksporti 1 milliard dollarga yetib, to'qimachilikdan keyingi ikkinchi mahalliy sanoat tarmog'iga aylandi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish va logistika dasturini keng rivojlantirdi. Lekin birgina shu bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Bugungi kunda energetika, qurilish, suv xo'jaligi, avtomobilsozlikda elektrotexnika mahsulotlariga talab kun sayin oshib bormoqda.

Masalan, energetika sohasida 36 milliard dollarlik 27 gigavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilayapti. Suv xo'jaligida nasoslarni zamonaviysiga almashtirish, ichimlik suvi tarmoqlarida hisoblagichlar o'rnatish bo'yicha ko'p rejalar bor.

Yurtimizda yiliga 100 mingta xonadonli ko'p qavatli uylar hamda 13 million kvadrat noturab binolar qurilyapti. Ularga ham kabel, transformator, isitish va sovutish tizimlari, nasos, lift, kuzatuv vositalari kerak.

Shunga asoslanib, davlat investitsiya dasturlari va yirik loyihalar bo'yicha "mahalliy kontent"ni ko'paytirish bo'yicha topshiriq berildi. Buning uchun tegishli vazirlik va tarmoqlar mahalliy korxonalarga o'z talabini yetkazishi, mahsulot sifatini yaxshilash va

standartlarga moslashtirishga ko'maklashishi zarurligi aytiladi. Umuman, bu yil elektrotexnika sohasida ishlab chiqarishni 40 trillion so'mga yetkazish imkoniyati borligi ko'rsatib o'tildi. Tarmoqdagi yana bir masala qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq. Hozirda tashqi qarz hisobidan bo'layotgan loyihalar uchun chetdan olib kelinayotgan tovarlar bundan ozod qilingan. Lekin shu loyihalarda qatnashayotgan o'zimizning korxonalar qo'shilgan qiymat solig'i to'layapti. Oqibatda ular import tovarlar bilan narx bo'yicha raqobat qila olmayapti.

Qayd etilganidek, endi xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarga yetkazib berilgan tovarlar uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarga qo'shilgan qiymat solig'i qaytarib beriladi. Bu orqali elektrotexnika ishlab chiqaruvchi korxonalarimizga qo'shimcha 250 million dollarlik bozor bo'ladi.

Shu o'rinda davlatimiz rahbari soha vakillariga murojaat qilib, endi sifat va raqobat ustida ishlash, xalqaro sertifikatlarni olish zarurligini ta'kidladi.

Eksport masalalari muhokama qilinar ekan, boshqa davlatlarda yirik uzelli yig'ishni tashkil etib, ularga butlovchi qism va yarim tayyor mahsulotni ortiqcha yig'imsiz yetkazib berish mumkinligi aytiladi.

Jumladan, qo'shni bozorlarga texnologiya, malakali mutaxassis va butlovchi qismlar yetkazib, O'zbekistonda mintaqaviy "elektrotexnika xabi"ga aylantirish salohiyati bor. Shu maqsadda milliy brendlar ostida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularni tanitish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

"O'zeltexsanoat" uyushmasi faqat yirik korxonalar bilan chegaralanmasdan, sohadagi

barcha tadbirkor bilan yaqindan ishlashi muhim. Shu bois, uning faoliyati tubdan o'zgartirilishi belgilandi.

Xususan, endi uyushma ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan tovarlarni aniqlaydi, ular bo'yicha loyiha qilib, tadbirkorlarga beradi. Sohadagi standartlarni xalqaro talablarga moslab, korxonalarda joriy qilish va sertifikat olishda ko'maklashadi.

Boshqa tarmoqlardagi ehtiyojni aniqlab, ularning buyurtmalarini elektrotexnika korxonalarga yetkazadi. Injener-texnolog va o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash bo'yicha oliyog' va texnikumlarga buyurtma beradi hamda o'quv dasturlarini birga ishlab chiqadi. Mahalliy korxonalardagi istiqbolli mutaxassislarni xorijiy ilg'or kompaniyalarga ish o'rganishga jo'natadi.

Uyushmaga yangi a'zo bo'lganlardan 2 yil, aylanmasi 10 milliard so'mdan kam korxonalardan esa umuman badal olinmaydi. Ularning mahsulotlari "Eltex Lab" laboratoriyasida bepul sinovdan o'tkaziladi.

Yig'ilishda tarmoq rahbarlari va hokimlar bu yil 500 million dollarlik 85 ta loyihani ishga tushirish rejalari bo'yicha axborot berdi.

Davlatimiz rahbari sohadagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqot qildi. Ularning muammo va takliflari asosida mutasaddilarga eksport uchun aylanma mablag' miqdorini oshirish, sanoat elektrotexnikasi uchun lizing tizimini kengaytirish, ilmiy-tadqiqot va konstruktorklar tajribalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlarga ustuvorlik berish, sifatsiz va qalbaki mahsulotlar savdosini cheklash va boshqa masalalar bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'ZA

NAVBATDAGI OLTIN MEDAL MUBORAK!



Parij shahrida bo'lib o'tayotgan Paralimpiya o'yinlarining qizg'in pallasida O'zbekiston delegatsiyasi navbatdagi medalni qo'lga kiritdi.

Para dzyudo bo'yicha erkaklar o'rtasida J2 klassida 60 kilogramm vazn toifasida yurtimiz sharafiga himoya qilgan Sherzod Namozov finalda gruziyalik Zurab Zuraianini

mag'lubiyatga uchratib, navbatdagi oltin medalga egalik qildi.

Shu tariqa, O'zbekiston delegatsiyasi 7 oltin, 5 kumush va 4 bronza medal bilan 13-o'rinni egallab turibdi.

QURITILGAN TARVUZ

O'ZBEKISTON AMALIYOTIDA YANA BIR YANGILIK



4



Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan mahalliy kengashlar sayloviga doir saylov byulletenlari shakli va matni namunasi ham tasdiqlandi. Saylov byulletenlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi va hududiy saylov komissiyalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotga muvofiq, saylov okrugi (hudud) bo‘yicha saylovchilar sonini inobatga olgan holda chop etiladi.

Markaziy saylov komissiyasida

SAYLOV BYULLETENLARINING SHAKLI TASDIQLANDI

Bu kamida 5 milliard so‘mni tejash imkonini beradi

5-sentyabr kuni Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari sayloviga doir saylov byulletenlari shakli, matni va tavsifini tasdiqlash to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi va tegishli qaror qabul qilindi.

Ta’kidlanganidek, bu yilgi saylovdagi byulletenlar mutlaqo yangi shaklda tasdiqlandi. Ularning ixchamligi byulletenni chop etish xarajatlarini kamida 3 milliard so‘mgacha iqtisod qilish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, har bir saylov turi uchun byulletenlarning rangi ham turlicha, ya’ni Qonunchilik palatasining bir mandatlí saylov okrugi bo‘yicha saylov byulleteni och ko‘k rangda, yagona saylov okrugi bo‘yicha saylov byulleteni och yashil rangda, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar kengashi saylovi bo‘yicha saylov byulleteni och sariq rangda, xalq deputatlari tuman, shahar kengashi saylovi bo‘yicha saylov byulleteni och kulrang rangda qilib belgilandi. Xuddi shu tartibda ovozlarni sanab chiqish natijalarini aniqlash to‘g‘risidagi bayonnomalar ham saylov byulletenlari rangiga mutanosib ravishda chop etilishi qayd etildi.

Ushbu holatda saylov uchastkasida ovoz berish natijalarini hisoblash algoritmlari xronometraj qilinganda, uchastka saylov komissiyasining ish hajmi va natijalarni aniqlash uchun sarflanadigan vaqt sarfi qisqargani kuzatildi.

Jumladan, avvalgi saylovlarda ovoz berish natijalarini hisoblash uchun uchastka saylov komissiyalari o‘rtacha 4 soat vaqt sarflashgan bo‘lsa, yangi shakldagi saylov byulletenlari joriy

nafargacha kamaytirishga hamda ular uchun sarflanadigan 2 milliard so‘mlik kompensatsiya to‘lovlari bo‘yicha xarajatlar ham iqtisod qilinishiga erishilmoqda.

Shu bilan birga, saylov byulletenlarining ixcham hajmi va turli ranglarda chop etilishi saylovchilar uchun qulaylik yaratib, byulletenlarni bir-biridan ajratib olish va ularni to‘ldirish jarayonlarini yanada osonlashtiradi.

Qaror bilan belgilanganidek, bir mandatlí saylov okruglari bo‘yicha Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning familiyasi, ismi va otasining ismi saylov byulleteniga,

saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning nomi, ramziy belgisi saylov byulleteniga, saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqish natijalari hamda hudud bo‘yicha saylov natijalarini aniqlash to‘g‘risidagi bayonnomalarga ularning saylovda ishtirok etishi uchun ijozat berilgan navbatiga muvofiq ketma-ketlikda kiritilishi belgilab berildi, jumladan:

birinchi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi; ikkinchi, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi; uchinchi, O‘zbekiston Ekologik partiyasi;

to‘rtinchi, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi;

beshinchí, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi.

Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan mahalliy kengashlar sayloviga doir saylov byulletenlari shakli va matni namunasi ham tasdiqlandi. Saylov byulletenlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi va hududiy saylov komissiyalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotga muvofiq, saylov okrugi (hudud) bo‘yicha saylovchilar sonini inobatga olgan holda chop etiladi.

Bahor HAZRATQULOVA,
journalist

Inson qadri uchun

AFV INSTITUTI ADASHGANNI TO‘G‘RI YO‘LGA BOSHLASH, YIQILGANNI SUYASH DEGANI

Inson hayotga bir marta keladi. Ushbu sinovli hayot yo‘llarida esa hammaning umri bir xil kechmaydi. Oramizda bir marta berilgan cheksiz ne‘mat — hayotning qadriga yetmay xatoga yo‘l qo‘yadigan, adashib jinoyat ko‘chasiga kiradiganlar ham uchrab turadi. Ammo panjara ortida o‘tgan kunlar kimlargadir katta saboq bo‘ladi. O‘z xatosini anglab, ozod va erkin hayotning qadrini tushunib yetadi. Agar yana bir marta imkon berilsa, oilasi bag‘riga qaytib halol va to‘g‘ri yashab, o‘zi, yaqinlari va jamiyatga foyda keltirishga ahd qiladi.

Tabiiyki, bunday holatdagi insonlarga imkon berish, ularni qo‘llab-quvvatlash, o‘z muammosi bilan yolg‘iz qoldirmaslik xalqimizga xos insonparvarlik, kechirimlilik va bag‘rikenglik qadriyatlarining muhim ko‘rinishidir. Bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan afv instituti ana shunday milliy an‘analimizning bardavom ekanidan dalolatdir. Zero, afv instituti adashganni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, yiqilganni suyash, deganidir. Keyingi yillarda bu imkoniyatdan foydalangan minglab insonlar sog‘lom hayotga qaytib, jamiyatimizdagi islohotlarda faol ishtirok etmoqda.

Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz — Mustaqilligimizning o‘ttiz uch yilligi munosabati bilan Prezidentimizning “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi farmoni bu xayrli ishlar davomiyligining yana bir muhim tasdig‘i bo‘ldi. Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan, jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan 522 nafar shaxs afv etildi.

Afv etilganlarning 159 nafari asosiy jazodan ozod etildi, 303 nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 60 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Afv etilganlarning 19 nafarini chet el fuqarolari, 56 nafarini ayol, 25 nafarini 60 yoshdan oshgan erkaklar,

233 nafarini yoshlar (shulardan, 1 nafari voyaga yetmagan) hamda 27 nafarini taqiyqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Muhimi, bu raqamlar ortida faqat jazodan ozod bo‘lgan insonlar emas,



Afv etilganlar xonadoniga kirib borar ekan, ularning yaqinlari, ota-onasi, jigarlari, ayniqsa, farzandlarining ko‘zlaridagi cheksiz quvonchni hech narsaga qiyoslab bo‘lmaydi. Aslida, afv etishdan maqsad ham xato qilganni faqat kechirish emas, balki ularning oilalariga ham ro‘shnolik olib kirishdir.

ularning ko‘plab yaqinlari taqdiri ham yotibdi. Zero, adashib yoki xatoga yo‘l qo‘yib jinoyat qilgan inson ortidan uning yaqinlari ham tashvish tortadi, aziyat chekadi. Ular xonadonga kirib borgan kun esa butun oila, mahallaga quvonch keltiradi. Zero, oilada tinchlik-totuvlik muhiti hukm sursa, mahallada ham osoyishtalik bo‘ladi.

Afv jarayonini tashkil etishning ham o‘ziga xos talabi, mas’uliyati bor. Buning uchun sud-huquq idoralari, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar vakillari, komissiya a‘zolari joylarga chiqib, har bir mahkum bilan alohida suhbat uyushtiradi. Mahkumning shaxsi, salomatligi, sodir etgan

jinoyatining xavflilik darajasi, qilmishiga pushaymonligi, jazoni o‘tash joyidagi xulq-atvori, jinoyat natijasida yetkazilgan zararining qoplangani va boshqa qator omillar atroflicha o‘rganiladi.

Ana shunday jarayonlardan muvaffaqiyatli o‘tib ozodlikka chiqqan har bir inson bu unga berilgan katta imkoniyat ekanini to‘g‘ri anglab yetishi va qadrlashi lozim. Afv etilganlarning dil so‘zlarini tinglar ekanmiz, ularning aksariyati buning mohiyatini to‘g‘ri anglaganidan mamnun bo‘lamiz.

— Ozodlikka chiqishim haqidagi xushxabarni eshitib ko‘z yoshimni tiyib turolmadim, — deydi Ubaydulla Qurbonov. — To‘g‘risi, hur, erkin hayotning qadriga yetmagan ekanman, qilmishimdan juda pushaymonman. Endi halol mehnat qilib, bolalarimning tarbiyasiga o‘zim bosh bo‘laman.

— Aybimni kechirib, yana ozodlikda yashash baxtini bergani uchun Prezidentimizga va xalqimizga katta rahmat, — deydi Sayyora Baxtiyeva. — Bu yerda o‘tgan har bir kun katta sinov bo‘ldi. Ota-onam va farzandlarimning taqdirini o‘ylab necha-necha tunlarim uyqusiz o‘tdi. Ming shukrki, yorug‘ kunlarga yetdim. Endi aslo xatoga yo‘l qo‘ymayman, farzandlarimning tarbiyasiga e’tiborli bo‘laman, toki ular men qilgan xatoni qaytarmasin.

Afv etilganlar xonadoniga kirib borar ekan, ularning yaqinlari, ota-onasi, jigarlari, ayniqsa, farzandlarining ko‘zlaridagi cheksiz quvonchni hech narsaga qiyoslab bo‘lmaydi. Aslida, afv etishdan maqsad ham xato qilganni faqat kechirish emas, balki ularning oilalariga ham ro‘shnolik olib kirishdir.

— Farmonga muvofiq, afv etilganlarning 56 nafari o‘z qilmishiga chin dildan pushaymon bo‘lib qat‘iy tuzalish yo‘liga o‘tgan xotin-qizlardir, — deydi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Mukarrama Nurmatova. — Bu inson qadri ulug‘lanayotgan yurtimizda muqaddas qadriyatlarimizga, oila qo‘rg‘oniga, ayol va ona, degan ulug‘ zotga hurmat-e’tiborning yorqin ifodasidir. Endilikda mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida afv etilgan xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga moslashishi, oilada va jamiyatda o‘z o‘mini topishi uchun tegishli hamkor tashkilotlar bilan birga ish olib boramiz.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI IX QURULTOYI TO‘G‘RISIDA

5-sentyabr kuni Toshkentda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining IX Qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Unda partiyaning 2020-2024-yillardagi faoliyati yakunlari sarhisobi tahlil etilib, 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturi tasdiqlandi. Qurultoyda shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko‘rsatildi.

Qurultoyda dastlab, Markaziy kengash raisi Alisher Qodirov “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2020-2024-yillardagi faoliyati sarhisobi to‘g‘risida ma’ruza qildi. Ta’kidlanganidek, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi mustaqillikning eng qizg‘in pallalaridan beri mamlakat siyosiy maydonida o‘z g‘oya va maqsadlarini keng targ‘ib qilib, xayrixoh yurtdoshlarimiz ishonchini oqlab kelmoqda.

“Milliy tiklanish”ning o‘tgan besh yillikdagi faoliyatiga nazar solsak, partiya 762 ming nafar a‘zolari, doimiy elektorati va tarafdorlariga ega bo‘lgan siyosiy kuch sifatida jamiyat hayotida o‘z o‘mini egalladi.

Partiyaning amaldagi saylovoldi dasturida 300 dan ortiq vazifa belgilangan bo‘lib, shu vaqtga qadar ularning 294 tasi (98 foizi) ijrosini ta’minlashga erishildi. Jumladan: 30 tasi — qonunchilikda, 130 tasi — Prezident qaror va farmonlarida, 77 tasi — Vazirlar Mahkamasi va vazirliklarning qarorlarida, 25 tasi — 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 2023-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturida takliflar orqali aks ettirildi.

Shu bilan birga, “Pedagoglar maqomi to‘g‘risida”gi qonun tashabbus qilindi. 2020/2021-o‘quv yilidan 1-9-sinfilar uchun hamda 2021/2022-o‘quv yilidan 10-11-sinfilar uchun “Tarbiya” fani joriy etilishiga erishildi. Mahalliy ijro hokimiyati rahbarini bir vaqtning o‘zida Xalq deputatlari Mahalliy kengashi raisi bo‘lishi bilan bog‘liq tartibni bekor qilish qonunchilikda aniqlab belgilab qo‘yildi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga partiyadan saylangan deputatlar tomonidan esa qonunlar ijrosi yuzasidan 25 mingdan ortiq deputatlik so‘rovlari jo‘natildi.

Qurultoyda partiyaning vakillik organlariga bo‘lib o‘tadigan saylovlarda ishtiroki bilan bog‘liq muhim masala ham ko‘rib chiqildi.

Delegatlar partiyaning yangi Saylovoldi dasturini tasdiqladi. Qayd etilganidek, undagi g‘oyalar Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda ma’naviy yuksalishni ta’minlashga oid islohotlar bilan hamohang bo‘lib, partiya ushbu strategiyani izchil amalga oshirishni bundan buyon ham faol qo‘llab-quvvatlaydi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy kengashlarga saylovlar munosabati bilan partiyaning 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturi delegatlar e’tiboriga taqdim etildi.

Partiya saylovoldi dasturida bosh shior sifatida “Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot uchun” g‘oyasini ilgari surgani bejiz emas. Ko‘rib turganingizdek, dunyo o‘zgaryapti, ma’naviy-axloqiy tanazzul borgan sari kuchaymoqda. Shu ma’noda, butun dunyoda kechayotgan globalleshuv jarayonida barcha mamlakatlar davlatchilik an‘analarni o‘zlarining qadriyatlariga tayangan holda davom ettirishga harakat qilmoqda.

Har bir xalqning, elning o‘ziga xos qadriyati: tili, dini, adabiyoti, madaniyati, san’ati, an’ana-yu urf-odatlari ularning o‘ziga xosligini ta’minlashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy-madaniy merosimizni avaylab asrash, an‘analarni saqlash va rivojlantirish bilan birga iqtisodiy soha rivoji uchun ham aynan milliy qadriyatlar orqali harakat qilsak, bundan faqat xalqimiz yutadi.

Misol uchun, dasturda yoshlarga oila va nikohning muqaddasligini anglatish, oila sha’ni va qadr-qimmatini himoyachisi — erkaklarning oiladan, bola tarbiyasidan uzochlashishining oldini olish bo‘yicha bir qator takliflar ilgari surilyapti. Bu esa partiya uchun oila qadriyatlar beshigini ekanini anglatadi.

Partiya uchun shubhasiz eng ustuvor masala, bu — tarbiya. Yangi dasturda ham ana shu g‘oyadan kelib chiqib, barkamol avlod salohiyatini ro‘yobga chiqarish maqsadida tarbiya va ta’lim, ya’ni maktabgacha va maktab ta’limi masalalariga ustuvorlik berilgan.

Partiyamiz mazkur muammolarga ham e’tibor qaratgani holda, yangi Saylovoldi dasturi loyihasida o‘zbek tilidagi ma’lumotlar bazasini kengaytirish, har yili xorijiy tildagi mingta ilmiy adabiyotni davlat tiliga tarjima qilish, shuningdek, yuqorida sanalgan muammolar yechimiga qaratilgan boshqa qator takliflar ilgari surilyapti.

Muhim masalalardan biri, bu — kinoteatlarda xorijiy kinofilmlarni o‘zbek tilidagi tarjima orqali namoyish etish bo‘yicha aniq talab belgilashdan iborat. Shuningdek, Saylovoldi dasturda partiyaning siyosiy maydondagi o‘mi bo‘yicha konservativ g‘oyalarni bevosita ifodalovchi vazifalarni ham ko‘rish mumkin.

Shu jumladan, “Davlat tili haqida”gi qonunni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, mahalla faoliyatini takomillashtirish, madaniy merosimizni muhofaza qilish, hunarmandchilik maqomini o‘zgartirish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, turli marosimlarni tartibga solish, turizm istiqboli yo‘lidagi muammolarni bartaraf etish, millat genofondini saqlash, ozig‘ovqat xavfsizligini ta’minlash, xalq tabobatini rivojlantirish, xorijdagi vatandoshlarimiz manfaatini himoya qilish, aholining huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Delegatlar partiyaning yangi Saylovoldi dasturini tasdiqladi. Qayd etilganidek, undagi g‘oyalar Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda ma’naviy yuksalishni ta’minlashga oid islohotlar bilan hamohang bo‘lib, partiya ushbu strategiyani izchil amalga oshirishni bundan buyon ham faol qo‘llab-quvvatlaydi.

Qurultoyda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko‘rsatish to‘g‘risidagi masala muhokama etilib, har bir okrugdan qo‘yilayotgan nomzodlar haqidagi ma’lumotlar e’lon qilindi.

Delegatlar partiyaning yangi Saylovoldi dasturini tasdiqladi. Qayd etilganidek, undagi g‘oyalar Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda ma’naviy yuksalishni ta’minlashga oid islohotlar bilan hamohang bo‘lib, partiya ushbu strategiyani izchil amalga oshirishni bundan buyon ham faol qo‘llab-quvvatlaydi.

Partiya xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratyapti. Ma’lumki, bu yil saylovda nomzodlarning kamida 40 foizi ayol kishi bo‘lishi Saylov kodeksida belgilab qo‘yildi. Qonunchilikda belgilangan tartib va qoidalardan kelib chiqqan holda deputatlikka nomzodlar shu asosda saralandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga majoritar saylov tizimi bo‘yicha 75 nafar nomzod, proporsional saylov tizimi bo‘yicha — 100 nafar, jami 175 nafar nomzod taqdim etilib, shundan 76 nafari yoki 43,4 foizi ayollardir. Shu bilan birga, nomzodlarning qariyb yarmi, ya’ni — 81 nafari (45,7 foiz) 45 yoshgacha bo‘lgan yetuk mutaxassislarni tashkil etmoqda.

Nomzodlarning mutaxassislilik bo‘yicha tahlili — ularning aksariyati quyidagi soha vakillari ulushiga to‘g‘ri kelayotganini ko‘rsatmoqda, jumladan 55 nafari — ta’lim va fan sohasi vakillari (31,4 foiz), 34 nafari — moliya-iqtisod sohasi vakillari (19,4 foiz), 19 nafari (10,9 foiz) huquqshunoslar, qolgan 67 (38,3 foiz) nafari boshqa soha vakillari tashkil etadi. Bundan tashqari, 55 nafar nomzod ilmiy daraja va unvonlarga ega.

Shubhasiz, bu galgi saylovlar har doimgidan-da kuchli raqobat muhitida o‘tadi. Bu yo‘lda salmoqli natijalarga erishib, parlament va mahalliy kengashlarda eng ko‘p o‘rinlarni egallash — partiyaning eng asosiy maqsadidir.

Qurultoyda partiya faoliyati bilan bog‘liq boshqa masalalar ham muhokama etildi hamda tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Matbuot xizmati

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

TA’LIM ISLOHOTLARI VA JAMIYAT TARAQQIYOTI

ularning uyg‘unlashuvi pirovard maqsadlarimizga yetkazadi



Abdurahim ERKAYEV,
Oliy Majlis Senati a'zosi,
Qarshi davlat universiteti
professori

Jamiyat hayotida har doim inson omili hal qiluvchi o‘ringa ega bo‘lgan. Qazilma boyliklarni izlab topadigan ham, ularni qayta ishlab, xalq, jamiyat manfaatiga xizmat qildiradigan ham o‘zimiz. Resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy xomashyoni qayta ishlab, yuqori qo‘shilgan qiymat zanjiri hosil qilish va milliy yuksalishning muhim vositasiga aylantirishda inson omili juda-juda zarur. Bu esa oqilona iqtisodiy, zamonaviy texnologik kadrlar tayyorlash siyosati tufayli yuz beradi.

Qazilma boyliklar ko‘p bo‘lishiga qaramay, qashshoqligicha qolayotgan, aksincha, bunday boyliklarga ega bo‘lmagan, ammo yuksak taraqqiyotga erishgan mamlakatlar mavjud. Ular bir-biridan, avvalo, ta’lim, ilm-fan, texnologiyalar va kadrlar malakasini oshirishga e’tibor jihatidan keskin farq qiladi. Inson omili, kadrlar tajribasi, mehnatsevarligi, halolligi, innovatsion tafakkuri oxir-oqibat ijtimoiy taraqqiyotga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Inson omilini rivojlantirish, zamonaviy kadrlarni tayyorlash ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi. Shu sababli davr talablaridan ortda qolishni istamaydigan davlatlar mudom umumta’lim, kasb-hunar va oliy ta’limga, jumladan, texnika ta’limiga yetarlicha e’tibor berib kelgan.

Tabiiyki, o‘z oldiga yuksak maqsadlar qo‘ygan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishgan yangi O‘zbekiston ham ta’lim islohotlariga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Sohadagi holat, islohotlar samaradorligi, jahon tajribasidagi innovatsiyalar muttasil tahlil qilib borilmoqda. Zarur hollarda islohotlarga kerakli o‘zgarish, qo‘shimcha va yangiliklar kiritilmoqda.

Bundan 8 yil avval O‘zbekistonda o‘qitish tizimi boshi berik ko‘chaga kirib qolgan. Bolalar 9-sinfni tugatgach, yoppasiga kasb-hunar kollejlari yoki akademik litseylarda o‘qishni davom ettirishi talab qilinardi. Buning uchun har bir tumanda 4-5 ta o‘rta maxsus ta’lim muassasasi qurish rejalashtirilgan, uning ham 3 tasi hunar markazida joylashgandi. Kasb-hunar kollejlari yotoqxonalariga esa 50 o‘ringa mo‘ljallangan edi. O‘qishga 20-30 kilometr, hatto undan uzoq masofadalan piyoda qatnash imkonsizligi tufayli (jamoat transporti aksariyat qishloqlardan qatnamas edi) davomat pasayib ketdi. Shu tariqa tizim yildan yilga ishdan chiqqa boshladi.

Oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirgan talabalar saviyasi talabga javob bermasdi. Chunki bolalar fanni o‘zlashtirish o‘rniga test savollariga to‘g‘ri javobni yodlar, ammo mazmunini tushunmasdi. Oliy ta’lim sohasida ishlaganini tufayli o‘qishga qabul qilinayotgan abituriyentlar bilimi, saviyasi va tahilliy tafakkuri yildan yilga pasayib ketayotganini achchiq alam bilan kuzatganam. Buning ustiga, bolalarda mustaqil o‘qib, bilimini oshirish ko‘nikmasi shakllanmay qolgan edi.

Ko‘pchilik jonkuyar pedagoglar oliy ta’lim muassasalarida talabalarga qo‘shimcha — avval maktab dasturlarini tez o‘rgatib, keyin oliy ta’lim dasturiga o‘tardi. “Dard ustiga chipqon” deganlaridek, maktab, kasb-hunar kolleji o‘quvchilari va OTM talabalari paxta terishga safarbar etilar, shu bilan yana 1,5-2 oy vaqti o‘qishsiz o‘tardi.

Oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotasi esa bitiruvchilarning 10-12 foizini qamrab olishga mo‘ljallangandi. Qolgan 80-90 foiz yoshning aniq hayotiy rejasini, maqsadi yo‘q edi. Chunki 9-sinfidan keyin durust o‘qish ham, kasb-hunar kollejlarni tugatgach, tayinli ish topish ham amrimahol edi.

Taraqqiyotning yangi davrida mamlakatimiz ta’lim tizimi tubdan isloh qilindi. Maktablar 11 yillik o‘qishga qaytdi. Kasb-hunarga o‘qitish tizimi qayta ko‘rib chiqilib, iqtisodiyot, ishlab chiqarish ehtiyojiga moslashtirildi. Oliy ta’lim

O‘zbekistonda izchil islohotlar o‘tkazish orqali ta’limning barcha bo‘g‘inida sifatini bosqichga ko‘tarish, bu jabhada jahondagi ilg‘or mamlakatlar qatoriga kirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Chunki har bir davlatning taraqqiyoti ko‘p jihatdan iqtisodiyot, ta’lim, kadrlar tayyorlash sohasidagi ilmiy asoslangan tizimli ishlar salmog‘iga, xususan, kadrlar salohiyatiga bog‘liq. Mamlakat rivojida tabiiy boyliklar katta ahamiyat kasb etsa-da, to‘laonli taraqqiyotni ta’minlay olmaydi.

muassasalariga qabul kvotasi keskin oshirildi. OTMlarga bitiruvchilarning 50 foizini qamrab olish vazifasi qo‘yildi. Davlatning yoshlar siyosati davr da’vati va talabiga moslashtirildi. Mamlakatda chuqur o‘ylangan, har tomonlama muvozanatga keltirilgan tizimli yoshlar siyosati yuritilayotgani nafaqat yosh avlod va ota-onalar, balki butun jamiyatni o‘zgartirib yubordi. Yoshlar hayotiga aniq maqsad va mazmun bag‘liq. O‘qishga munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi.

Ta’lim tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, innovatsion o‘zgarishlar kiritib, jahon standartlari hamda hozirgi taraqqiyotning amaliy ehtiyojlariga moslashtirish tashabbuslari to‘liq qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bunday tashabbus va g‘oyalar nafaqat “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda o‘qitish jabhasi bilan boshqa bog‘liq qonunlarda, balki qonunosti hujjatlar, farmon va qarorlarda, hukumat bayonnomalarida ham o‘z ifodasini topmoqda.

Masalan, davlatimiz rahbari ishtirokida shu yil 6-may kuni o‘tkazilgan taqdimotda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini qayta ko‘rib chiqish belgilandi. Bugun 306 bakalavriat yo‘nalishi va 325 magistratura mutaxassisligidan ayrimlari xalqaro standartlarga mos kelmaydi, zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bermaydi. Bu esa bitiruvchilarni ishga joylashtirishda muayyan muammolarni vujudga keltirmoqda. Shu bois, oliy ta’limni qayta ko‘rib chiqish va talabdan kelib chiqqan holda yangi yo‘nalishlar ochish, umuman, o‘qitish tizimini xalqaro tasniflarga moslashtirish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari iqtidorli abituriyentlar uchun davlat granti asosida o‘qish imkoniyatini yaratish lozimligini, hozirgi qabul jarayonini to‘liq adolatlilik deb bo‘lmashligini ta’kidladi. Chunki yuqori ball to‘plagan ayrim abituriyentlar, agar ariza bergan oliy ta’lim muassasasida kvota to‘lib qolgan bo‘lsa, o‘qishga kira olmaydi. Natijada abituriyentlar o‘rtasida bilim sohasida adolatlilik raqobat tamoyili buziladi. Bunday holatga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ishlab chiqilgan yangi tartibga ko‘ra, endi yuqori ball to‘plagan abituriyent qaysi OTMni tanlagan bo‘lishidan qat’i nazar, davlat grantiga tavsiya etiladi.


Bundan tashqari, davlat granti talabaga to‘rt yilga berilmaydi. Aksincha, har yili yuqori natijalarga erishgan talabalar o‘rtasida qayta taqsimlanadi. Bunday tartibning amaliyotga joriy qilinishi, birinchidan, talabalarni yaxshi o‘qishga rag‘batlantirsa, ikkinchidan, ichki sog‘lom raqobatni shakllantiradi. Natijada o‘qishga kirishda davlat grantiga loyiq ball to‘plab, keyin yaxshi o‘qimay qo‘ygan, ammo to‘rt yil davomida davlat hisobidan o‘qib, stipendiya olib yurgan yoki, aksincha o‘qishga shartnoma asosida kirib, keyin faqat a‘lo baholarga o‘qisa-da, na stipendiya oladigan va na shartnoma to‘lovida imtiyozga ega bo‘ladigan talabalar uchun adolat nisbatan qaror topadi.

Muhim o‘zgarishlardan yana biri shuki, abituriyent endi oliy o‘quv yurtini test imtihonlariga emas, undan keyin tanlaydi. Natijada yuqori ball to‘plagan abituriyentlar o‘qishdan chetda qolib ketmaydi. Bu yil mazkur amaliyot birinchi marta sinovdan o‘tkazildi. Uning natijalariga jamoatchilik xolisona baho berishi shubhasiz.

Mamlakatimizda milliy malakaviy tizimni rivojlantirish instituti tashkil etilishi xususida aytiladi. Bu ham juda muhim. Chunki mavjud sakkiz ming ishchi kasbining besh mingtasi bo‘yicha malaka standartlari hozirgacha yaratilmagan. Qolganlari bo‘yicha malaka talablari sifati yaxshi emas. Holbuki, kadr tayyorlaydigan oliy o‘quv muassasalari bo‘lg‘usi mutaxassisning qo‘lidan nimalar kelishi, unga qo‘yiladigan talablarni aniq-tiniq bilib, shunga yarasha zaruriy bilim berishi va ko‘nikma shakllantirishi kerak.

OTMlarga qabul kvotasi keskin ko‘paytirilishi va ularga akademik mustaqillik berilishi professor-o‘qituvchilarni ham ruhlantirdi. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish, doktorlik (PhD va DCc) dissertatsiyalari yoqlashga intilish bir necha karra kuchayishi qatorida ilmiy laboratoriyalar tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari, korxona va tashkilotlar bilan xo‘jalik shartnomalari tuzish, turli grantlar tanlovida qatnashish ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Hamkorlar soni muttasil ortib bormoqda. Chet eldan professor-o‘qituvchilar ta’lim jarayoniga jalb qilinmoqda.

Gapimiz isboti bilan bo‘lishi uchun o‘zimiz ishlaydigan Qarshi davlat universitetiga oid bir necha misol keltiraman. OTMning ilmiy salohiyati keyingi uch yilda 17 foiz o‘sib, 44 foizni tashkil



etmoqda. Aslida, bu ko‘rsatkich bundan ham yuqori bo‘lishi lozim edi. Ilmiy darajali salkam 90 ga yaqin professor-o‘qituvchimiz Shahrisabz pedagogika instituti va yangidan tashkil etilgan davlat va nodavlat (xususiy) OTMlarga o‘tdi. Bu ham kerak. Ular qaysi oliygohda ishlamasin, O‘zbekistonimiz, viloyatimiz uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda.

2024-yilda Qarshi davlat universitetida 7 ta ilmiy laboratoriya tashkil etilib, jami soni 10 taga yetdi. Ilgari OTMda faqat o‘quv laboratoriyalari bor edi. Davlat grantlari bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar qiymati 8,2 milliard so‘mni tashkil etdi. Universitetda 53 nafar xorijlik professor-o‘qituvchi faoliyat yuritmoqda. Bizning o‘qituvchilarning xoriy OTMlarida chet elda stajirovkada o‘tmog‘da. 2023-yilda 46 o‘qituvchimiz shet elda stajirovkada bo‘ldi, bu yil ular soni 108 nafarga yetadi.

Universitetda uzoq yillardan beri muqobil energiyadan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkaziladi. Buning uchun OTM o‘zining geliopoligoniga ega. 2022-2023-yillarda geopoligon va binolar tomiga quvvati 1060 kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi quyosh panellari o‘rnatildi. O‘tgan davrda 650,4 ming kVt (568,5 million so‘mlik) elektr energiyasi olinib, 357,9 ming kVt universitet ehtiyoji uchun ishlatildi, ortgan 292,5 kVt (210,6 million so‘mlik) energiya hududiy elektr korxonasiga sotildi.

Qarshi davlat universiteti talabalarining yotoqxonaga ehtiyojini to‘liq ta’minladi. Bular yuz berayotgan o‘zgarishlardan bir shingil, xolos. Yoddiy-o‘quv bazasini mustahkamlash bo‘yicha qilinayotgan ishlar ko‘lami tafsiloti ham bir necha varaqni to‘ldiradi. Mazkur o‘quv yilida talabalar va professor-o‘qituvchilar darslarini hamda davomati nazorat qilishning HEMIS platformasi bilan integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan (insonni tanib olish videotahlili moduli — Face ID) tizimi to‘liq joriy etildi.

Bu yerdagi yangilanishlar oliy ta’lim tizimidagi islohotlarning bir qismi. Hali qilinishi kerak bo‘lgan ish ko‘p, xususan, ta’lim sifatini oshirish, dual ta’limni joriy qilish bo‘yicha oldimizda katta vazifalar turibdi.

Yangi O‘zbekiston tez sur’atda rivojlanmoqda. Har yili uch mingdan ortiq sanoat korxonasi, yuz mingdan ziyod ish o‘rni ochilmoqda. Yigirma besh ming muhandis va texnologga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Yangi korxonalar nafaqat mamlakatda, balki jahon bozorida ham raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi uchun ishchi kadrlar ham, muhandis va texnologlar ham zamonaviy bilimiga, ishlab chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Jahon bozorida raqobatbardoshlikka intilish, birinchi galda, muhandis-texnologlar malakasiga talabni oshiradi va ular zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki ular ishchilarni yangi texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatishdan tashqari, o‘sha tez o‘zgaruvchan yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishi zarur.

Boshlanayotgan to‘rtinchi sanoat inqilobi energiya va materiallarning muqobil turlariga o‘tishni taqozo etmoqda. Shu ma’noda ishlab chiqarish, iqtisodiyot va boshqa sohalarni raqamlashtirish hayotiy ehtiyojdir. Ayniqsa, jamiyat hayotining barcha jabhasida sun’iy intellekt keng qo‘llanishi bo‘lajak muhandis mutaxassislarining bilimi va mehnat ko‘nikmasiga talabni bir necha karra oshirmoqda.

Shularni hisobga olib, shu yil 20-iyunda davlatimiz rahbari muhandislar tayyorlash yuzasidan yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Kadrlar tayyorlashga qayta-qayta e’tibor qaratilayotgani mazkur masala ustada fikrlash va izlanishlar to‘xtamayotganidan dalolat beradi.

Yangi tashabbuslarga ko‘ra, mamlakatning 36 ta texnikaviy universitetida o‘quv-tadqiqot jarayoni zamonaviy xalqaro tajribalar asosida takomillashtirilmoqda. Masalan, Toshkent davlat texnika universitetida mehnat bozorida talab yo‘qolgan 30 foiz mutaxassislik qisqartirildi.

Kafedralar ko‘shiladi, universitet to‘liq dual tizimga o‘tkaziladi. O‘quv jarayoni Germaniyaning Drezden texnik universiteti va Yaponiyaning Sikuba universiteti dasturlariga moslashtirildi.

Boshqa universitetlarimiz ham rivojlangan mamlakatlar — Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Italiya, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Singapur texnika universitetlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Har bir oliy o‘quv yurtiga industrial sheriklar (sanoat korxonalari) birlashtiriladi. Bu esa talabalarning amaliyot o‘tashi va diplomdan keyingi ta’lim olishiga imkon beradi.

Davlatimiz rahbari tarmoq vazirliklari va yirik korxonalar huzurida o‘ttiz ikkita tarmoq kengashi tuzish, ular ilmiy-texnik sohada tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashi va buyurtmachi bo‘lishi zarurligini ta’kidladi.

O‘qitish sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalari ilmiy-pedagogik va ilmiy tadqiqot salohiyatini yuksaltirish ular sonini optimallashtirishni taqozo etadi. Ikki-uchta bir profilidagi, turli mahkamalarga mansub o‘rtacha, hatto zaif salohiyatga ega oliy ta’lim muassasalarini qo‘shib, o‘rniga har jihatdan kuchli bitta universitet tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdirligi bilan birga, amaliy tomondan ham foydalidir. Masalan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mavjud bo‘lishiga qaramay, bank tizimi, Soliq qo‘mitasi o‘zlarining oliy o‘quv yurtlarini tashkil etgandi. Bu tarzda ilmiy va pedagogik kuchlarni bo‘lgandan ko‘ra, kadrlarni bir dargohda birlashtirib, xalqaro miqyosda raqobatbardosh, kuchli oliy ta’lim muassasasi tashkil qilgan ma’qul va mamlakatga manfaati katta. Bu boshqa OTMlarga ham tegishli. O‘zbekistonda ayni shunday oliy ta’lim muassasalarini optimallashtirish siyosati boshlandi.

Bugun oliy ta’limda islohotlar chuqurlashib bormoqda. Maqsad — O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari jahon mehnat bozorida raqobat kila oladigan kadrlar tayyorlashi, ular esa, o‘z navbatida, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etadi. O‘zbekistonda taraqqiyot ekan mamlakatlar qatoriga ko‘tarishi zarur. Shunda yurtimizda xalq turmushi yanada farovonlashadi, davlatimiz Konstitutsiyada zimmasiga olgan ijtimoiy davlat bo‘lish majburiyatini ato etishning yana bir muhim yo‘nalishi — yuksak intellektual, malakali, bilimli kadrlarni tayyorlash masalasini hal qiladi.

Husayn Ibrohim TOHA:

“O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHGA QARATAYOTGAN E’TIBORI IHT MAQSADLARIGA TO‘LIQ MOS KELADI”

Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Husayn Ibrohim Toha “Dunyo” axborot agentligi savollariga javob berdi

O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatorida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Shu ma’noda, mamlakatimiz barqaror rivojlanishga erishish, global tarzda do‘stlik va o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘shish orqali yirik mintaqaviy tuzilmalar tarkibida faol pozitsiyani egallab kelayotir.

“Dunyo” axborot agentligi Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Husayn Ibrohim Toha bilan bugungi kunda mazkur tuzilma doirasida o‘zaro hamkorlik qanday rivojlanayotgani, bu jarayonda O‘zbekistonning o‘rni haqida suhbatlashdi.

— Janob bosh kotib, Sizning “O‘zbekiston buyuk islom mutafakkirlari va olimlari yurti, tashkilot ushbu sohalarida respublika bilan hamkorlik qilishdan manfaaddor”, degan so‘zlaringiz barchamizning yodimizda. Mamlakatimiz, uning zamonaviy taraqqiyoti va xalqaro maydondagi o‘rnini qanday baholaysiz?

— O‘zbekiston zamini qadimda Ipak yo‘li bo‘ylab Sharq va G‘arb o‘rtasida muhim chorraha bo‘lib xizmat qilgan. Savdo-sotiq, g‘oyalar va madaniyatlar almashinuviga asosiy vazifani bajargan. Madaniy chorraha sifatidagi bu noyob mavqei sivilizatsiyalar boy merosining shakllanishiga hissa qo‘shdi. Xususan, O‘zbekiston tarixida xalqqa singib ketgan mehr-oqibat va bunyodkorlik qadriyatlarida aks etgan turli madaniyatlarining o‘zaro bog‘liqligi va uyg‘unligi alohida mujassam.

O‘zbekiston islom merosini asrab-avaylashga katta hissa qo‘shdi. Buni Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari tasdiqlaydi. Bu mamlakat



— O‘zbekistonning strategik joylashuvi va o‘zib borayotgan iqtisodiyotidan kelib chiqqan holda IHT bilan aloqalarni chuqurlashtirish uchun salmoqli salohiyatga ega. Infratuzilma mustahkamlanib, iqtisodiy diversifikatsiya qilinayotgan, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda IHTga a’zo davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Chunki tashqi ishlar vazirlari kengashining Kamerunda bo‘lib o‘tadigan 50-yig‘ilishi mavzusini ham IHT doirasida transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga bag‘ishlanganligini hisobga olsak, yurtingizning ahamiyati nihoyatda muhim. O‘zbekistonning innovatsiyalar, ta’lim va barqaror rivojlanishga qaratayotgan e’tibori IHT maqsadlari bilan hamohang bo‘lib, o‘zaro manfaatlilik sheriklik va islom birdamligi hamda taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Yuqoridagi ta’kidlaganimdek, O‘zbekiston IHT bilan hamkorlikni chuqurlashtirish uchun salmoqli

O‘zbekiston islom merosini asrab-avaylashga katta hissa qo‘shdi. Buni Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari tasdiqlaydi. Bu mamlakat islom ilm-fanining markazi ham bo‘lib, ma’naviyat, fiqh, falsafa, san’at, tibbiyot, matematika va tabiiy fanlar kabi ilg‘or sohalar rivojiga katta hissa qo‘shgan buyuk siymolarga beshik bo‘lgan.

islom ilm-fanining markazi ham bo‘lib, ma’naviyat, fiqh, falsafa, san’at, tibbiyot, matematika va tabiiy fanlar kabi ilg‘or sohalar rivojiga katta hissa qo‘shgan buyuk siymolarga beshik bo‘lgan. Xususan, Imom Buxoriy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ajdodlaringiz jahon intellektual taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan olimlardir.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining noyob islom qo‘lyozmalari to‘plami bilan mashhur bo‘lib, ularning aksariyati UNESCO Umumjahon Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bular mamlakatning boy intellektual merosiga egaligidan darak beradi. Islom hamkorlik tashkiloti Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O‘zbekiston bilan turli sohalar, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, jamiyat va ilm-fan yo‘nalishlarida aloqalarni mustahkamlab keltirmoqda. IHT mamlakatlari turizmda yuzlari tomonidan Xiva shahri 2024-yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti” deb e’lon qilingani ham hamkorligimiz nechog‘liq rivojlanib borayotganidan dalolat.

— O‘zbekistonning salohiyati, dunyodagi eng yirik xalqaro tashkilotlardan biri, 1,7 milliard aholiga ega 57 davlatni birlashtirgan IHT bilan hamkorlik istiqbollari haqida nima deya olasiz? Yangi O‘zbekistonda yaratilayotgan imkoniyatlar mazkur tuzilma doirasidagi aloqalarga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

salohiyatga ega. O‘zbekiston o‘z infratuzilmasini mustahkamlash va iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda davom etar ekan, mamlakat butun Markaziy Osiyoda Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarni bir-biriga bog‘lovchi muhim markazga aylanish uchun noyob imkoniyatga ega bo‘ldi.

— Islom hamkorlik tashkiloti O‘zbekistonning ushbu tuzilma doirasidagi ko‘p tomonlama aloqalarini rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlarini, respublikaning tashkilot sammitlarida ilgari surgan tashabbuslarini qanday baholaydi?

— IHT O‘zbekistonning tashkilot doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va qo‘shma islom faoliyatini kengaytirish borasidagi faol sa’y-harakatlarini yuqori baholaydi. O‘zbekistonning mulohot va ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal etishga alohida e’tibor qaratayotgani IHT nizomida mustahkamlangan tamoyillariga to‘liq mos keladi va islom olamida muhim ishtirokchi sifatidagi mavqeyini mustahkamlaydi. Biz O‘zbekistonning IHTning turli tashabbuslarida faol ishtirok etayotganini va muhim tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazayotganini yuksak qadrlaymiz. Bu respublikaning tashkilot umumiy qadriyatlari va maqsadlariga sodiqligidan dalolat beradi.

“Dunyo” AA
Jidda

Mahsulotga talab bor. Mijozlar esa yuqori qiymatli bozorlar. Ayniqsa, Yevropa davlatlari quritilgan tarvuzga katta qiziqish bildirmoqda. Talabni doim yuqori qo'yadigan ushbu mamlakatlar, avvalo, sifatga ishonch hosil qilgani turgan gap. Ish avvalida namunalar Yevropaning bir qancha davlatiga yuborilib, ijobiy xulosalar asosida fitosanitar sertifikatlar olingani buning tasdig'i.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Agrartarmoq

Yurtimiz qishloq xo'jaligi uchun joriy yil ancha barakali bo'ldi. Dehqonlar aksar turdagi mahsulotlardan yaxshigina hosil ko'tarib, bozorlarimizni to'ldirdi. Narx-navo shunga yarasha arzonlashdi. Odamlarning bundan ko'ngli to'lmog'ga. Aslida, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ham shu — arzon va sifatli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish. Ammo bundan yetishtiruvchi va ishlab chiqaruvchi ham ziyon ko'rmasligi kerak. Barakali xirmon ko'targan dehqonning daromadi ham shunga yarasha bo'lsa, nur ustiga a'lo.



QURITILGAN TARVUZ

O'zbekiston amaliyotida yana bir yangilik

Afsuski, yoz oylarida buning aksi kuzatilgan holatlarga ham duch keldik. Avvaliga me'yoridan ortiq miqdorda yetishtirilgan piyozning bir qismi sotilmay, dalalarda qolib ketdi, mavsumning talabgir mahsulotlaridan bo'lgan tarvuz-qovun narxi kutilganidan arzon bo'ldi. Buning hisobiga ko'plab dehqonlar xarajatini ham qoplay olmagan haqida eshiklik. Takliflarning talabdan ortgani ularning daromadiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Axir bozorda narx-navo har doim ham bir xil bo'lavermaydi. Bir mavsumda qimmat bo'lgan mahsulot, keyingisida keskin arzonlashi mumkin. Buni dehqon yoki istalgan mahsulot yetishtiruvchi hisobga olishi, bozorni o'rganishi kerak. Shunda o'tgan yili narxi sezilarli qimmat bo'lgan qovun-tarvuz bu yil ham unday bo'lmagani, yoppasiga yetishtirilgan mahsulotga bozorda talab tushib ketishi mumkinligi chamlangan bo'lardi.

Biroq buni kamchilik deb ham bo'lmaydi. Mahsulot qancha ko'p bo'lsa, shuncha mo'la'kichlik bo'ladi. Bu yaxshi, faqat qishloq xo'jaligida hosildorlik oshib borayotgan hozirgi sharoitda yangi yechimlar topishning vaqti keldi. Ya'ni mahsulotni sanoat usulida qayta ishlash orqali ham hosilni nest-nobud qilmaslik, ham bir necha barobar ko'proq daromad topish mumkin. Zamonaviy qilib aytganda, meva-

sabzavotlarni qayta ishlash, konservatsiya va sublimatsiya qilish eng to'g'ri yechimlardan biriga aylandi.

Birgina misol. Yoz mavsumining eng sevimli mahsuloti hisoblangan tarvuzning yurtimiz bozorlaridagi o'tacha narxi 10-12 ming so'm atrofida. Sublimatsiya qilingan, ya'ni sun'iy usulda qayta ishlanib, quritilgan tarvuzning jahon bozoridagi narxi esa 22-28 dollarga borar ekan. Bir kilogramm quritilgan mahsulot uchun polizdan uzilgan 4 ta tarvuz kerak bo'lishini chamlalasak, qoladigan daromad bir necha barobar yuqori ekanini hisoblash qiyin emas.

Buni Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi "Perfect Logistics" korxonasi o'z tajribasi misolida isbotlamog'ga. Barcha turdagi mahsulotlarni sublimatsiya usulida qayta ishlash quvvatiga ega korxonada ilk bor quritilgan tarvuz ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu yurtimiz amaliyotida ham o'ziga xos yangilik. Qadoqlangan mahsulotning sinov namunalari xorij davlatlariga ma'qul kelib, aksariyati hamkorlik taklifini bildirgan. Hozircha Rossiyaning ikkita yirik kompaniyasi bilan qiymati 2,5 million dollarlik eksport



shartnomasi imzolangan. Tayyor mahsulotlar birin-ketin Xitoy, Turkiya, Buyuk Britaniya, Germaniyaga ham chiqariladi.

— Sublimatsiya usuli barcha mahsulotlarni 99 foiz tabiiylikni saqlagan holda quritish imkonini beradi, — deydi korxona direktori Otabek Matchonov. — Umumiy maydoni 7,5 gektardan iborat kompleksimizda mahsulotlarni konveksion, sublimatsiya usulida quritish hamda jem-murabbo, sharbat ishlab chiqarishga mo'ljallangan 3 ta zavod qurilgan. Shundan dastlab sublimatsiya usulida quritish zavodimiz ishga tushirildi. Bu yerda meva-sabzavot to'liq qayta ishlanib, zamonaviy usulda quritiladi. Biroq boshqa turdagi mahsulotlar, masalan, sut-qatiqni ham sublimatsiya qilsa bo'ladi. Talabga qarab mahsulot chiqaramiz. O'tgan yili sinov tariqasida tarvuzni quritib bo'lgandik, yaxshi chiqdi. Namunalarni bir necha davlatga yubordik, ularga ma'qul keldi. Oz miqdorda ayrim davlatlarga eksport ham qildik. Ochig'i, mahsulot sotuvida muammo bo'lmaydi, chunki

quritilgan mahsulotlarga xorij bozorida talab yuqori, narxi ham ancha qimmat. Quritilgan tarvuzni bu yildan katta hajmda ishlab chiqarishni boshladik. Mahsulotlarga "ISO 22000" va "Halal" sertifikatlari olingan.

Jarayonga tayyorgarlik korxonada ancha oldin boshlangan. 2019-yilda qurilishi boshlangan zavodlar 2020-yilda ishga tushishi kerak edi. Ammo pandemiya sabab ishlar ortga surildi, Xitoy va Turkiyaga buyurtma qilingan qurilmalar ikki yil kechikib keldi. Nihoyat, 2023-yilda zavod qurib bitkazildi hamda O'simliklar karantini va himoyasi agentligining bevosita ko'magida ishga tushirildi. Yil oxiriga borib yirik hamkorlar bilan shartnoma imzolashga erishilgach, 750 kilogramm namuna mahsulot ishlab chiqarilib, xorijga jo'natildi. Joriy yildan sotuv uchun mahsulot ishlab chiqarish boshlangan bo'lsa, sentyabr oyidan katta hajmda eksport amalga oshiriladi. Hozir korxona 30 foiz quvvatda ishlayapti va 40 kishining bandligi ta'minlangan. Mavjud 3



oshiriladi, — deydi Otabek Matchonov. — Ya'ni tarvuz faqat yuvilib, tozalanadi va kerakli shaklda kesilib, texnikaga joylanadi. Jarayonda sig'imi 1200 kilogrammga teng 2 ta muzlatkichda havo harorati 5 soniya ichida minus 50 darajagacha tushadi. Keyingi bosqichda esa mahsulot vakuum ichida quritiladi. Salkam 24 soat deganda o'z tabiiylikni 99 foiz saqlagan tayyor quritilgan tarvuz olinadi. Bundan tashqari, texnologiya tarvuzning qanday hajmda kesilgan bo'lsa, shundayligicha qolishini ta'minlaydi.

Sublimatsiya usulining o'ziga yarasha murakkabliklari ham bor. Avvalo, uni tushunadigan va ishlatadigan kadrlar hozircha kam. Ikkinchidan, jarayonda gaz yoki elektr energiyasidan uzilish bo'lishi kerak emas. Aks holda, qurilma ichidagi 10-15 ming dollarlik mahsulot bir necha daqiqalar ichida yaroqsiz holga keladi.

Zavod bir sutkada 2-2,5 tonna tarvuzni qayta ishlash quvvatiga ega. Tadbirkorlar xomashyoga talabni yurtimiz sharoitida bemalol qondira oladi. Boisi, serquyosh o'lkamizda tarvuz yetishtirish mavsumi 7-8 oy — aprel oyidan to noyabrgacha davom etadi. Zarurat bo'lsa, yil-o'n ikki oy ham yetishtirish mumkin.

Qishloq xo'jaligidagi ilmiy yondashuv va rivojlanishlar bunga imkon beradi. Agar har bir hududda shunday qayta ishlash korxonasi bo'lsa bormi, bu yil kuzatilgani kabi me'yordan ortiq yetishtirilgan meva-sabzavot dalalarda qolib, nest-nobud bo'lmaydi. Aksincha, qayta ishlanib, qiymati yanada ortadi.

Korxonada barcha turdagi meva-sabzavot sublimatsiya usulida quritilib, sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazilgan. Ayrimlari talabga ko'ra, eksport ham qilingan. Hozircha eng qimmat sotilgan sublimatsiyalangan qulupnay bo'lib, uning 1 kilogrammi narxi 32 dollargacha boradi. Tadbirkorning aytishicha, jahon bozorida yurtimizda yetishtirilgan sabzi, qulupnay, qovun, olma, shaftoliga talab yuqori. Ularni quritilgan holda sotib olishga tayyor xaridorlar esa talaygina. Korxona yaqin oylarda ana shu quvvatlarini ham faol ishga tushirmoqchi. Qo'shimchasiga sharbat, jem-murabbarlar ham tayyorlanadi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bunyodkorlik

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi bo'sag'asida ko'hna Marg'ilon shahrida "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishi boshlandi. Bu odamlar kayfiyati, ruhiyatini ko'tardi. Barchaning yuzida quvonch-shodlik. Chunki marg'ilonliklar bu kunlarni orziqib kutgandi. Sababi, hududda yangi uy-joyga muhtoj oilalar ko'pchilikni tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, shaharda 1 kvadrat kilometr maydonda 1500 kishi yashaydi. Bu belgilangan me'yordan ancha yuqori.

1992-yildan 2016-yilga qadar shahar hududida bor-yo'g'i, 11 ta ko'pqavatli uy-joylar qurilgan, xolos. Endilikda bu boradagi ko'rsatkichlar salmog'i 4 hissaga oshdi. Joriy yilning o'zida 14 ta 458 xonadonli zamonaviy uy-joylar foydalanishga topshirildi. Ammo aholi talabi uchun bular yetarli emas. Muammo shundaki, shahar hududida yashash xonadonlari qurishga mo'ljallangan yer maydonlari ham kam. Nima qilish kerak?

Davlatimiz rahbari joriy yil Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida mavjud masalalar yechimiga e'tibor qaratdi. Farg'ona tumani hududidan 110 gektar kam hosilli ekin maydonlari "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishi uchun ajratib berildi.

Farg'ona — Qo'qon katta avtomobil yo'lining janubiy sarhadlari bugun bunyodkorlik maydoniga aylanib ketdi. Yer qazish ishlarini bajarayotgan buldozerlar, poydevor tiklayotgan, g'shit terayotgan, obodonchilik yumushlari bilan band bo'lgan ishchi-xizmatchilar mehnat qilmoqda. Barcha ishlar sarhisobini olib borib, muvofiqlashtirib boruvchi qurilish shtabi tashkil etildi. Asosiy maqsad, belgilangan ishlarni sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish.

KO'HNA KENTGA KO'RK BO'LAYOTGAN

— Prezidentimizning viloyatimizga tashrifida yaqin istiqbolga belgilangan vazifalar doirasida Marg'ilon va Qo'qon shahri, tumanlar markazlarida "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishini mahalla darajasigacha tushirish yuzasidan kerakli tavsiyalar berildi. Viloyatda ba'zi mahallalar qiyofasi eskilgich qolib ketayotganiga tanqidiy e'tibor qaratib, shahar va tuman markazlarida 5 tadan eski mahallalarni tanlab olib, 7-10 qavatli uylar qurish uchun xususiy sektorni jalb qilish hamda yangi uylarni birinchi navbatda, ushbu mahalla aholisiga berish bo'yicha ko'rsatmalar olindi, — deydi viloyat hokimining o'rinbosari Hojiqo'z'jon Isagov. — Bu yo'nalishda dastlabki ishlarga tamal toshi qo'yilib, Marg'ilon shahar Yangi hayot mahallasi hududida zamonaviy shahar qurilishi boshlandi. Bu yerda 75 gektar yer maydonida 6 ming xonadonli zamonaviy uy-joylar qad rostlaydi. Shuningdek, loyiha qiymati 50 million dollar bo'lgan savdo kompleksi, biznes markazi, 2 ta umumta'lim va 6 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 2 ta ko'p tarmoqli tibbiy klinika qurilishi ko'zda tutilgan. Burhoniddin Marg'inoniy xalqaro

ilmiy-tadqiqot markazi, Maqom teatri, yuridik institut, 4 ta mehmonxona, shoir va san'atkorlar xiyoboni, savdo hamda xizmat ko'rsatish majmualari qad ko'taradi.

Yangi shahar markazidan o'rin olishi mo'ljallanayotgan istirohat bog'i yon-atrof-ga ko'rk, go'zallik bag'ishlaydi. Landshaft arxitektura asosida yashil xiyobonlar, manzarali daraxtlar alleyalari yaratiladi, bolalar maydonchalarini, avtoturargohlar quriladi.

Marg'ilon "Jahon hunarmand-lar shahri" maqomini olgan mamlakatimizdagi uchinchi shahar. Avlodlardan avlodlarga o'tib, sayqal topib kelayotgan ipakchilik, duradgorlik, to'qimachilik, do'ppido'zlik, misliklik kabi o'ndan ortiq hunarmandchilik an'analari kundan-kunga taraqqiy etib, rivojlanib bormoqda. Shaharning bosh rejasi qurilishida ana shu muhim jihatlarni ham e'tiborga olindi. 50 gektar maydonda sanoat zonalarini tashkil



Sheroz Qoraboyev olgan suratlari.

yangi shahar



etiladi. Uzoqni ko'zlangan bu loyiha, aholini nafaqat uy-joy, balki kafolatlangan ish o'rnlari bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

Katta avtomagistral yo'l yuqosida qad rostlayotgan ko'p qavatli turar joy va maishiy binolar o'tgan-ketganning hayratiga sabab bo'lmog'ga. Kun jaziramasiga qaramay mehnat qilayotgan quruvchilar matonati tahsinga loyiq. Barcha qurilish ishlari mas'ullar va tegishli tashkilotlar tomonidan qat'iy nazoratga olingan. Binolarning pishiq-puxta, mustahkam va chiroyli qilib qurilishi — davr talabi. Sohaga oid hukumat

qarorlari, yangicha me'yorlar, shuningdek, iste'molchilarning istagi ham shuni taqozo qilmoqda. Bunyodkorlik ishlarida mahalliy quruvchilar bilan birga, xorijli investorlar ham ish-tirok etyapti. Xususan, Rossiyaning "Moneron" qurilish korxonasi yangi uy-joylar qurishini boshlagan.

— Mukammal loyihalarga asoslangan 16 qavat, 96 xonadonli monolit uy-joy qurilishiga kirishdik, — deydi ish boshqaruvchi Valijon Mo'yidinov. — Monolit asosida qurilgan binolar zilzilabardosh, pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadi. Bu borada o'ziga xos tajribaga egamiz. Shu kunga qadar Farg'ona shahridagi "Yangi O'zbekiston" massivida 9 qavatli muhtasham uylarni qurib bitkazdik.

Mutaxassislarning aytishicha, har bir binoning poydevoridayoq mustahkamlikka e'tibor berilyapti. Qurilayotgan uylar energiya tejamar loyihalarga asoslangan. Binolar fasad qismi bazalt qoplama bilan qoplanishi, sendvich paneldan tayyorlangan eshik-romlar xonadonlarni qishda issiq, yozda salqin bo'lishida asqatadi. Bino tomiga quyosh suv isitish kollektorlari, quyosh elektr panellari o'rnatiladi. Natijada foydalaniladigan issiq suvning 30-40, elektr energiyasining 25-30 foizi muqobillik asosida ta'minlanadi.



— Diyorimiz qiyofasi kundan-kunga chiroy ochib bormoqda, — deydi mehnat faxriysi Narimon Shodiyev. — Yurtimizning qay bir go'shasiga bormang, bunyodkorlik, yangilanish, o'zgarishlar qarshisidan chiqasiz. Uzoq yil xalq xo'jaligi sohalarida ishlab nafaqaga chiqdim. Shahrimizda bunday katta qurilishlar bo'lmagani bois, uy ololmaganman. Bitta hovlida o'g'lim bilan birga yashaymiz. To'ng'ich nabiramni uylantirish taraddudimiz. Nasib qilsa, yangi shahardan uy olishini ko'zlagi turibmiz. Katta yo'l yuqosida, hamma narsa mujassam bo'lgan maskanda yashashni hamma orzu qiladi. Unga utash maktab, bog'cha, tibbiy xizmat, savdo, ishlab chiqarish singari kundalik hayot tarzi uchun muhim bo'lgan tarmoqlar qurilayotgani odamlarni bu yerda yashashga chorlamog'ga. Bu kunlarga shukronalar aytaman.

Bunyodkorlik, yaratuvchanlik xalqimizga xos fazilatlaridan. "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi, har bir hududning o'ziga xos timsolini yaratmog'ga. Sharqona latofat va nafislik, zamonaviy me'morchilik andazalari bilan uyg'un tarzda yuksalib borayotgan yangi megapolisi shaharlar ko'hna maskanlarga ulug'vorlik kash etmoqda.

Kun sayin o'zgarib borayotgan shahar va qishloqlar, qaddi baland imoratlar, obod, ko'chalar xalqimiz bunyodkorligining yorqin timsoli sifatida ko'ngillarga g'urur, iftixor bag'ishlaydi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



El-u yurt ishq qon bilan, jon bilan yuraklarda muhrlangan bo‘ladi. Bu shunday totli ne‘matki, uning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Vatani — serhosil tuprog‘imiz, buloqdek sof suvimiz, beg‘ubor osmonimiz, alla eshitgan beshigimiz... Ona vatani deganimizda, yuragimiz g‘ururga, mehrga limmo-lim to‘lishi shundandir balki.

Mustaqilligimizning 33 YILLIGIGA INTERVYU

MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI?

GO‘DAK KO‘NGLIDAY SOF TUYG‘U

Donaxon MAHKAMOVA,

Furqat tumanidagi

2-MTT tarbiyachisi,

II darajali “Sog‘lom avlod uchun”

ordeni sohibi

Inson qalbidan chuqur joy olgan shunday tuyg‘ular bo‘ladiki, zamon va makon unga ta‘sir etmaydi. Bu — Vatanga muhabbat, uning har bir toshu g‘iyohi bilan faxrlanish hissi. Uni ifodalab bo‘lmaydi, faqat yurak-yurakdan his etiladi, xolos. U xuddi go‘dak ko‘ngliday sof tuyg‘u.

O‘zbekiston o‘xshashi yo‘q jannatmonand diyor. Xalqimizga xos bo‘lgan mehr-oqibat, saxovat-peshalilik va bag‘rikenglik dunyoning hech qayerida bo‘lmasa kerak. Oddiylik va kamtarlik, go‘zal odob va xulq, vatanga, oilaga sadoqat va muhabbat hissi xalqimizga xos bo‘lgan fazilatdir.

Ona yurtimiz bog‘lari mevaga, tog‘lari lolaga to‘la. Bunda to‘rt fasl hukm suradi. Bunday yurtini sevmay bo‘ladimi?

Yurtimizda bayram shukhi kezib yuribdi. Istiqolga erishgan kunimiz joylarda katta ko‘tarinkilik bilan nishonlandi. Zero, mustaqillik bizga kimligimizni anglatdi. Ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissin berdi. Farzandlarimizning

bilimli bo‘lish, shu yurt rivojiga hissa qo‘shish orzu-umidlari ro‘yobini ta‘minladi.

Bolalikdagi ko‘pgina xotiralarim ta‘lim-tarbiya olgan bog‘cham va maktabimga borib taqaladi. Yoshligimdan tarbiyachi bo‘lishni istaganman. Maktabni tamomlagach, shu mutaxassislik bo‘yicha o‘qidim.

Yigirma sakkiz yildirki, tuman markazidagi maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyachi bo‘lib ishlayman. Bolajonlarni sevaman, ularning beg‘ubor va sof dunyosi, qalbi mening yuragim bilan bog‘lanib ketgan. Yuzlab shogirdlarim qalbim gavharlaridir.

Kasbimni yaxshi ko‘raman. Ko‘cha-ko‘yda yur-sam, katta bo‘lib qolgan shogirdlarimni uchrataman, ular menga doim chuqur hurmat bilan qaraydi.

Tarbiyachilik faoliyatim davomida maktabgacha ta‘lim tizimi og‘ir qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazdi. Ta‘lim sifatiga e‘tibor bo‘lmadi. Tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan sharoit mutlaqo‘ qoniqarsiz holatga tushib qoldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita g‘amxo‘rligi va e‘tibori tufayli maktabgacha ta‘lim davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Ta‘lim sifatiga katta e‘tibor qaratilmoqda, bolalarning ta‘lim va tarbiya olishi uchun jahon andazalariga mos yangicha ta‘lim tizimi olib kiritilayapti. Bu soha mutaxassislarning yanada faol ishlashiga imkon yaratadi.

Davlatimiz rahbarining farmoniga asosan, mustaqilligimizning 33 yillik bayrami arafasida II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlanganim ko‘nglimni yanada yuksaltirdi. Bu yangilikni quvonch ko‘z yoshlari bilan kutib oldim. Axir inson uchun mehnati munosib qadrlanganidan ortiq baxt yo‘q! O‘tgan umrimga bir qur nazar tashlasam, hayotim qanchalar mazmunli bo‘lgani, unda bolalarning tarbiyasi bilan mashg‘ullik sharafi borligi, shu kasbni tanlab xato qilmaganimni anglayman. Halol va sidqidildan qilingan mehnat hech qachon e‘tibordan chetda qolmasligiga ishonchim komil bo‘ldi.

Vatani, nazariyda men ishlayotgan bog‘cha, unda tarbiyalanayotgan bolalar, jajji tillarda yangrayotgan she‘rlar, chizayotgan rasmlardan boshlanadi. Sof va beg‘ubor qalblarda bo‘y cho‘zayotgan yaxshiliklar, mehnat eritga shu ulug‘ yurt rivoji yo‘lida munosib ishlarni amalga oshirishga asos bo‘ladi. Shularni o‘ylar ekanman, qalbim xuddi vatani kabi xotirjam va nurga to‘ladi.

BU ISHQ QON VA JON BILAN QALBLARGA MUHRLANGAN

Muhabbat SHARAPOVA,

O‘zbekiston Qahramoni

“Vatani ne deb so‘rganlarga, bir kaftgina tuprog‘ berdim”... Mashhur qo‘shiqdagi bu so‘zlar “Vatani nima? Nima uchun uni sevamiz?” kabi savollarga munosib javob, nazariyda. Ona yurt, bu — ajdodlaringiz yotgan tuprog‘, undan kuch olamiz, shu zamin tafti dilimizga quvvat bag‘ishlaydi. Tinch va osoyishta yurtda tug‘ilib o‘shib, yaqinlar mehri va g‘amxo‘rligi, el koriga yaraydigan farzandlarni tarbiyalab, kasbdan qadr topishdan ortiq baxt bormi?

El-u yurt ishq qon bilan, jon bilan yuraklarda muhrlangan bo‘ladi. Bu shunday totli ne‘matki, uning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Vatani — serhosil tuprog‘imiz, buloqdek sof suvimiz, beg‘ubor osmonimiz, alla eshitgan beshigimiz... Ona vatani deganimizda, yuragimiz g‘ururga, mehrga limmo-lim to‘lishi shundandir balki.

Yarim asrdan ziyod, 53 yil muallimlik qildim. Bu yillarda minglab ota-onalarning eng noyob gavhari — farzandlariga saboq berdim. Turli nufuzli tanlov, olimpiadalarda g‘olib bo‘lgan bilimdon o‘quvchilarim ayni paytda mamlakatimiz va xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida tahsil olmoqda, faoliyat yuritmoqda. Ularning har bir yutug‘idan quvonib, faxrlanib yashayman. Haqiqiy o‘qituvchining baxti shogirdlarining kamoli, yutuqlari va mavqei oshib borayotganini ko‘rishida. Muallimlik menga sharaft keltirdi.

Keyingi yillarda o‘quvchilarimiz jahon maydonida O‘zbekiston sharafiga munosib himoya qilmoqda. Xususan, xalqaro olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritib, hech kimdan kam emasligini isbotlamog‘da. Bu albatta, yurtimizda ta‘limga, yoshlarga qaratilayotgan e‘tibor hosilasi. Bularni ko‘rib, kuzatib quvonaman. Shu zaminada umrguzaronlik qilayotganim, yoshlarga ta‘lim berishday sharaftli kasbim borligiga shukrona keltiraman.

Iqtidorli yoshlar O‘zbekistonning “oltin fondi”, deb shunchaki aytilgani yo‘q. Uning amaliy ifodasi uchun matematika, kimyo, fizika fanlari chuqur o‘rgatiladigan, ixtisoslashtirilgan maktablar har bir tumanda tashkil etildi. Ularda tahsil olgan o‘quvchilar yurtimizning yangi tarixini yaratuvchi yoshlar bo‘ladi. Ular dunyo tamaddunidagi Renessans hodisalarini yaratgan buyuk ajdodlarimizga shak-shubhasiz munosib vorisdir. Shonli tarixga ega millatimiz, ajdodlarimiz bilan qanchalik faxrlansak, kelgusi avlodlarimiz ham bilimi, iqtidoriga tayanib, yangi O‘zbekistonning shonu shavkatini davom ettiradi. Ular Uchinchi Renessans bunyodkorlari, millatimiz gavhari, boyligi.

Biz faqat har bir daqiqa qadriga yetib, bir jonni bir tan bo‘lib, Vatani ravnaqi yo‘lida tanlangan yo‘ldan og‘ishmay, kelajak avlodni yuksak taraqqiyot sari boshlasak bo‘lgani.

VATAN YURAGIMIZ URISHINI ESHITADI

Unga shunday ko‘rinmas rishta bilan bog‘langanmiz

Marg‘uba G‘ULOMOVA,

Yashnobod tumanidagi

77-ixtisoslashtirilgan ko‘zi ojizlar maktab-internatining

ona tili va adabiyot

fani o‘qituvchisi,

“Do‘stlik” ordeni sohibi

Vatani har bir insonning kindik qoni to‘kilgan, tug‘ilib o‘sgan joyi. Vatanda ota-bobalarimiz xoki bor. Shu bois, yer ham, osmon va butun borliq ham bizni eshitadi, his qiladi, deb o‘ylayman. Boshqacha aytganda, vatani bizning yurak urishimizni eshitadi. Biz yurtimizga ana shunday ko‘rinmas rishta bilan bog‘langanmiz. Ha, O‘zbekistonni yaxshi ko‘raman. Shu yerda tug‘ilib o‘sdim, kamolga yetdim. Uni sevmay, vatanga mehr bermay bo‘ladimi?!

Bolaligimdan ko‘zim yaxshi ko‘rmaydi. Ayni paytda o‘zim tahsil olgan Yashnobod tumanidagi 77-ixtisoslashtirilgan ko‘zi ojizlar maktab-internatida ona tili va adabiyot fanidan dars beraman. Kasbimni yaxshi ko‘raman. Adabiyot insonni ma‘nan va ruhan yuksaltiradi, tasavvuri, estetik didini shakllantiradi. Ayniqsa, vatanga sadoqat, o‘zligi, ona yurtidan faxrlanish singari tuyg‘ular men uchun ham, bolalar uchun ham birdek qiziqarli. O‘quvchilarim turli mamlakatlarda xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etib qaytgach, ularning vatani sog‘inchi haqidagi hikoyalarni jon qulog‘im bilan tinglayman. Bolalarning yaxshi natijalari, erishgan yutuqlaridan boshim osmonga yetsa, yurt sharafiga o‘zining sharafiga, deb bilishi, shu zaminga muhabbati, insonning yuragini entiktiradigan vatani haqidagi kechinmalari bir ustoz sifatida meni quvontiradi. Zero, bunda adabiyot darsining o‘rni alohida, deb o‘ylayman.

Har bir darsni noodatiy usullarda o‘tishga harakat qilaman. Shoir-yozuvchilarning vatani haqidagi ijod namunalaridan o‘rinli foydalanaman. Ulug‘ shoirimiz Abdulla Oripovning:

**Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.
Nechun vatani, deya yeru osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho,**

deya boshlanadigan she‘ri o‘quvchilar yoddan aytib berganida ularni faxr-iftixor tuyg‘ularini his qilganman. Bugun har bir o‘quvchimga shu yurtga, xalqimizga mehr-muhabbatni ko‘rib ko‘nglim taskin topadi. Ularning qalb ko‘zlari ochiq, yurtda bo‘layotgan o‘zgarishlar, yuksalishlarni qalb ko‘rib, his qilib turadi. Bu ularning o‘qish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishi, orzu-umidlari namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqilligimizning o‘ttiz uch yilligi arafasida “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandim. Ochig‘i, bunday yuksak mukofotga loyiq ko‘rilishimni kutmagan edim. Aslida, bu mukofot barcha hamkasblarimniki. Yurtimizda o‘qish, izlanish, faoliyat yuritishimiz uchun zarur sharoit, imkoniyat va imtiyoz yaratilgan. Hech kimdan kam bo‘lmay bir sohaning mutaxassisi bo‘ldik. Qo‘llab-quvvatlov, mehnatni munosib taqdirlangani, e‘tibor va rag‘bat uchun nihoyatda minnatdorman.

O‘zbekistonda 8 yoshidan beri yashayman. Ukrainada tug‘ilganman. Bu yurtga ilk bor 1981-yilda, ota-onam bilan Qashqadaryo viloyatining Muborak shahriga kelganman. Qarshi shahridagi aeroportda samolyotdan tushib, quyosh nuridan ko‘zlarim qamashdi. Issiq havo yuzimga urilganida, o‘yladim: “Men bu yerda yashay olamanmi?” Keyinroq unutilmas va ta‘riflab bo‘lmaydigan gastronomik tajribaga duch keldim, bu ta‘m bilish sezgilarimni o‘zgartirib yubordi. O‘shanda totganim — o‘zbek yassi noni va suvli qora uzumning xushbo‘yli hamda ta‘mini hech qachon unutmayman! Bozorlarda “qandli” tarvuzlar va “asal” qovunlar sotilardi!

Lekin men uchun eng muhim kashfiyot — odamlar edi. Sinfdozlarim, ustozlarim, qo‘ni-qo‘shnilarim, ota-onamning do‘stlari menga e‘tibor va g‘amxo‘rlik qilar, hamma narsada yordam berardi. Notanish bo‘lsa-da, odamlar og‘ir sumkalarni ko‘tarishda ko‘maklashar, o‘zlari uchun tayyorlagan taomlarini baham ko‘rardi. Ular bag‘rikenglik va mehribonlik timsoli edi. Bularning barchasi men uchun juda ajablanarli va qimmatli bo‘lgan. Shu bilan birga, tarbiya va dunyoqarashimga, jamiyatdagi o‘rnimni tushunishimga asos bo‘ldi. O‘zbekistonni butun qalbim bilan sevdim, barcha milliy ma‘naviyat-xalqiy an‘analari, urf-odatlar, poydevorlarni mamnuniyat bilan qabul qildim. Bu mening ilk taassurotlarim edi.

Sevimli yurtim meni o‘stirgan, o‘qitgan, bilim bergan, ishlashimga imkon yaratgan. Shu yerda oilali bo‘ldim. Hayot yo‘lida qanday qiyinchiliklar

MEN UCHUN ENG MUHIM KASHFIYOT — ODAMLAR MEHRI

Liliya TOVSTENKO,

Buxoro shahridagi 21-umumiy o‘rta ta‘lim

maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi,

“Do‘stlik” ordeni sohibi

bo‘lmasin, hech qayerga ketish xayolimga kelmagan. Ota-onam O‘zbekistonni tark etishga qaror qilganida Buxoro shahridagi 21-umumta‘lim maktabida o‘qituvchi bo‘lib ishlardim. Maktabni, o‘quvchilarimni ko‘zim qiyimadi. Bu mening vatanim ekanligi va shu yerda bir umr qolishga allaqachon ishonchim komil edi. Shuning o‘ziyoq O‘zbekistonni nega sevasiz, degan savolingizga javob deb o‘ylayman.

Har birimiz Vatanni onamiz kabi sevish va hurmat qilishimiz shart. Lekin, afsuski, ko‘pchilik o‘z mamlakatini boshqalar bilan solishtirib, tashqaridan yaxshiroq hayot topishga harakat qiladi. Men buni tushunmayman. Axir onamizni boshqalarga qiyoslamaymiz-ku! Demak, biz yaxshilikni ko‘rishni va uni qadrlashni o‘rganishimiz kerak. Avvalo, tinch-totuv, ahil-inoq yashayotganimiz uchun Prezidentimizdan minnatdorman. Biz tinch osmon ostida uxlayapmiz, o‘qish va ishlash, ijodkorlik, kelajak uchun rejalari tuzish va ularni amalga oshirish, bolalarni tarbiyalash imkoniyatiga egamiz. Vatani parvar bo‘lishga, o‘z vatani sevishga intilish insonni baxt va totuvli sari boshlovchi yetakchi kuchdir. O‘qituvchi sifatida yosh avlodni o‘z davlatiga, xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalashga harakat qilaman.

Pedagogik tajribam 29 yil. Yillar davomida o‘quvchilarim maktab fan olimpiadalarida, teatr tomoshalari tanlovlarida birinchi va sovrinli o‘rinlarni egalladi. Har yili uslubiy ishlarnalar va tavsiyalar bo‘yicha shahar va viloyat ko‘rik-tanlovlarida qatnashib, sovrinli o‘rinlarni egalladim. Muallifligimda darslik nashr etildi.

Shu yilning 24-avgust kuni kechqurun maktabimiz direktori Roza Avdeyeva qo‘ng‘iroq qilib, “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganimni ma‘lum qildi. Uzoq vaqt ishonolmadim. Zero,

bunday yuksak davlat mukofoti haqidagi farmonni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘zi imzolaydi! Keyin nafaqat maktabimizdagi, balki shahardagi boshqa maktablarda faoliyat yuritayotgan hamkasblarim ham meni tabriklay boshladi. Ota-onalar, talabalar va do‘stlar qo‘ng‘iroq qilishdi va yozishdi. Rossiya, Buyuk Britaniya, AQSH va boshqa ko‘plab mamlakatlarda istiqomat qilayotgan shogirdlarimdan ijtimoiy tarmoqlar orqali xabarlar keldi. Dunyoning turli burchaklaridan bunday samimiy qo‘llab-quvvatlashni his qilganimdan juda xursand bo‘ldim. “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganim haqidagi xabar qalbimda tuyg‘ular to‘fonini qo‘zg‘atdi: o‘qituvchilik baxt, zavq, iftixor. Zero, buyuk Vatanimizning har bir o‘qituvchisi mening o‘rnimda bo‘lish uchun barcha imkoniyatlarga ega. Bunday yuksak mukofotga sazovor bo‘lganim hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlaganim, mehnatim, shogirdlarimga bo‘lgan muhabbatim o‘z samarasini berayotgani, yosh avlodning ta‘lim va tarbiyasiga o‘z kamtarona hissamni qo‘shayotganimga dalolat edi. Yurtimizda har bir o‘qituvchining mehnati e‘tibordan chetda qolmayotganiga amin bo‘ldim.

